



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 11 907 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 9 811 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 21 418 ta korxonalar ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1- dekabr holatiga)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar (2024- yil yanvar-noyabr holatiga)


2024- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 784 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 36,9 foiz, qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 19,0 foiz, sanoat – 14,1 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida – 20,8 foiz, Mirzaobod – 11,2 foiz, Oqoltin – 10,0 foiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- dekabr holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yil 1- dekabr holatiga 11 907 tani tashkil etdi, ulardan 9 880 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 16,5 foiz, sanoat – 10,3 foiz, qurilish – 7,0 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Guliston shahrida – 23,4 foiz, tumanlardan Sirdaryo – 12,4 foiz, Boyovut – 9,1 foiz, Mirzaobod – 8,6 foiz va Sardobada – 8,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 732 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 728 ta;
- yirik korxonalar 4 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- dekabr holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- dekabr holatiga 9 880 tani tashkil etdi, ulardan 9 811 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,7 foiz, sanoat – 12,4 foiz, qurilish – 8,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 3,0 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,4 foiz, boshqa turlari – 9,0 foiz.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 94 tadan 150 taga (o'sish 56 taga), axborot va aloqa – 45 tadan 67 taga (o'sish 22 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni


(birlikda)




(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (22,7 foiz), Sirdaryo (12,4 foiz), Sardoba (9,0 foiz) va Mirzaobod (8,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 53,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar (2024- yil 1- dekabr holatiga)


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Sardoba (17,9 foiz), Mirzaobod (15,8 foiz), Oqoltin (14,7 foiz) va Sayxunobod (11,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- dekabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 10,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,7 foizini ishlab chiqarish sanoati, 5,0 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,6 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



1 139

Ishlab chiqarish sanoati



62

tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



21

Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



7

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



(2024- yil 1- dekabr holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 51,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 20,6 foiz ulushni tashkil etdi.

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 27,7 foiz ulushni tashkil etdi;


Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Yillar kesimida soni

(birlikda)



Bino va inshootlar qurish

433

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

173

Fuqarolik obyektlarini qurish

232

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 3 724 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,2 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Guliston sh.	993
Sirdaryo	488
Sardoba	339
Boyovut	329
Guliston	315
Yangiyer sh.	293
Mirzaobod	241
Oqoltin	229
Sayxunobod	224
Xovos	191
Shirin sh.	88

Yillar kesimida soni (birlikda)



2 323

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

1 100

307

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- dekabr holatiga 652 taga yetib, ularning 649 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:



mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 4,8 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 95,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Guliston sh.	161
Sirdaryo	90
Yangiyer sh.	65
Boyovut	62
Guliston	51
Sayxunobod	48
Oqoltin	48
Mirzaobod	42
Sardoba	40
Xovos	34
Shirin sh.	11

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

2024- yil 1- dekabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 67,2 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 29,4 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,4 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni







(birlikda)

Guliston sh.	64
Yangiyer sh.	23
Boyovut	22
Sirdaryo	16
Guliston	12
Xovos	9
Shirin sh.	9
Mirzaobod	7
Oqoltin	6
Sayxunobod	5
Sardoba	4

Yillar kesimida soni

(birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	62	57	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	27	25	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	4	2	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 140 ta yoki 72,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadaagi korxonalar sonining 91,9 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,2 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,9 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)




2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 72,2 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 24,7 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



9

Pochta va kuryerlik



73

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati



213

Quruqlikdagi va quvur transporti



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni *(birlikda)*


Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi *(foizda)*



(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- dekabr holatiga)


Amaldagi 9 880 ta tijorat korxonasi va tashkilotlaridan 2024- yil 1- dekabr holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 8 474 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,9 foiz, sanoat – 11,8 foiz, qurilishda – 8,6 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


Yillar kesimida soni *(birlikda)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni *(birlikda)*




Hududlar kesimida soni *(birlikda)*



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

2024- yil 1- dekabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Guliston shahrida – 322 ta, Boyovut – 115 ta va Sirdaryoda – 104 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 415 ta, sanoat – 109 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 107 ta va qurilish sohasida – 95 ta.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- dekabr holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 271 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 32,8 foiz, sanoat – 27,3 foiz, savdoda – 25,8 foiz, hududiy kesimida esa eng ko'pi Guliston shahar – 21,4 foiz, Boyovut – 17,7 foiz va Guliston tumanida – 15,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- dekabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Xovos (17,6 foiz), Sirdaryo (14,9 foiz) va Boyovut (14,8 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Xovos	709
Sirdaryo	599
Boyovut	596
Sardoba	509
Guliston	493
Sayxunobod	437
Mirzaobod	333
Oqoltin	333
Yangiyer sh.	8
Guliston sh.	5

Yillar kesimida soni (birlikda)



Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'sish sur'ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 129,4 foizni tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 212 ta korxonalaridan 74 tasi qo'shma korxonalar va 138 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024- yil 1- dekabr holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,1 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 71 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 33,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 16,0 foiz), Turkiya (ulushi 12,7 foiz), Tojikiston (ulushi 8,0 foiz) va Qozog'iston (ulushi 7,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.



(2024- yil 1- dekabr holatiga)

Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar jami soniga nisbatan eng katta ulushi Sirdaryo 23,1 foiz, Guliston shahar – 19,3 foiz, Yangiyer shahar – 16,0 foiz va Mirzaobodda – 9,9 foiz to'g'ri keladi.

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- dekabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi**
Tel.: 67 236-70-00

